



O'ZBEKISTONDA SOVET DAVRI YER-SUV ISLOHOTLARI

Мирзаева Н.Ж.

*т.ф.н., доцент, ГулДУ
naziramirzayeva69@rambler.ru*

Norbo'tayeva Nilufar

*Guliston davlat universiteti
magistranti*

Abstract: This article analyzes the historiographical issues of the land and water reform implemented by the Soviet government in Uzbekistan, which represents one of the most controversial socio-economic measures of the 1920s in Uzbek history. The paper specifically examines the study and interpretation of this problem within the framework of Soviet-era historiography.

Keywords: private ownership, collectivization, kolkhozes, sovkhozes, waqf lands, Bolsheviks, Communist Party, Qoshchi (Peasant Union), uyezd, okrug.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы историографии земельно-водной реформы, проведенной Советским правительством в Узбекистане — одного из самых противоречивых социально-экономических мероприятий в истории страны 20-х годов XX века. Статья освещает аспекты изучения и освещения данной проблемы в советской историографии.

Ключевые слова: частная собственность, коллективизация, колхозы, совхозы, вакуфные земли, большевики, компартия, союз «Кошчи», уезд, округ.

Anotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston tarixining eng ziddiyatli davrlaridan biri XX asrning 20-yillaridagi eng muhim siyosiy-iqtisodiy tadbir, Sovet hukumatining O'zbekistonda amalga oshirgan yer-suv islohotining tarixshunosligi masalalari tahlil qilingan, maqola mazkur muammo tarixshunosligining sovet davrida o'rganilishi va yoritilishi masalalarini ifodalaydi.

Kalit so'zlar; xususiy mulkchilik, kollektivlashtirish, kolxozlar, sovxozlar, vaqf yerlari, bolsheviklar, kompartiya, qo'shchi, uyez, okrug.

Kirish. Sovet davri yer-suv islohotlari asosan 1920-1930-yillar O'rta Osiyoda xususiy mulkchilikni tugatib, yer va suvni davlat tasarrufiga o'tkazish, boy va quloqlar sinfini yo'q qilish hamda yersiz dehqonlarga yer berish maqsadida o'tkazilgan majburiy jarayon edi. 1925-1929-yillardagi islohotlar orqali minglab gektar yerlar musodara qilinib, kollektivlashtirish (kolxoz) uchun zamin yaratildi.

Ko'chmanchilarni o'troqlashtirishning bolshevikcha zo'rovonlik usullari bilan amalga oshirishi salbiy oqibatlariga olib keldi. Natijada ijtimoiy, sinfiy millatlararo ziddiyatlar kuchaydi. Islohot mamlakat iqtisodiy va siyosiy hayotidagi tanglikka xam

barxam bera olmas edi. Tanglikdan chiqish uchun o'lkada keng qamrovli o'zgarishlarni amalga oshirish zarur edi. Bunday o'zgarishlarni amalga oshirish zarur ekanligini markaz xam anglab yetdi. 1921-yildan e'tiboran amalga oshirilgan islohotlar yangi iqtisodiy siyosiy deb nomlandi, unga ko'ra «harbiy komunizm» siyosatini moxiyatan belgilab bergan oziq-ovqat razvyortkasidan voz kechildi va uning o'rniga oziq-ovqat soligi joriy qilindi. Natijada qishloq xo'jaligida davlat nazorati ostida bo'lsada, iqtisodiy qonuniyatlarning amal qilinishi tiklana boshlandi. O'sha 1921-yilning o'zidayoq hosildorlik keskin ko'tarildi, ochlik chekindi va bozor jonlana boshlandi. Oziq-ovqat solig'ining joriy qilinishi bilan birgalikda davlat dehqonlarga agrotexnik va moliyaviy yordam bera boshlaganligi, vaziyatni yanada yaxshilashga yordam berdi. Sanoat sohasida yangi iqtisodiy- siyosat davlatga tegishli bo'lgan mayda va o'rta korxonalarining tadbirkorlarga ijaraga berishida jismoniy shaxslarga yangi korxonalar ochishga ruxsat berishdi, yirik korxonalarining xo'jalik hisobiga o'tkazishda namoyon bo'ldi. Davlat ixtiyorida Turkiston bo'yicha 99 tagina korxonalar qoldirilib, ular xam bozor qoidalariga amal qilgan xolda faoliyat ko'rsata boshladilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil, 30-avgustdagi "Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4433-son qarori ijrosini ta'minlash, iqtidorli talaba yoshlarni ilm-fanga keng jalb etish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bu harakatlarga tashabbusim o'laroq, men ham O'zbekistonning 1925-1941 yillardagi tarixining asosiy bir qismi yer-suv bilan bog'liq islohotlar va ularning yurtimiz tarixidagi ahamiyatini yoritib berishga harakat qildim. Dastlabki harakatlardan biri bu-kollektivlashtirish siyosati bo'lib, 1928-1937- yillar oralig'ida amalga oshirilgan. Ushbu siyosatdan maqsad: qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish orqali katta qishloq xo'jaligi korxonalarini (kolxozlar va sovxozlar) yaratish edi. Bu siyosat 1929-yilda boshlangan "to'liq kollektivlashtirish" davri bilan kuchaytirildi. Sug'orish tizimlarini rivojlantirish: Paxta yetishtirishni oshirish uchun sug'orish tizimlari kengaytirildi va yangi kanallar qurildi. Biroq, bu ekologik muammolarni, xususan, Orol dengizining qurib ketishiga olib keladigan muammolarni keltirib chiqardi.

Qurolli qarshilik ko'rsatish harakatining avj olishi, iqtisodiy va siyosiy vaziyatni og'irlashishi 20-yillarning boshlariga kelib bolsheviklarni islohotlarini boshlashga majbur qildi. Bu yo'nalishdagi dastlabki harakatlar 1920-yilning sentabridan e'tiboran amalga oshirila boshlagan yer-suv islohotida o'z aksini topdi. Bolsheviklar fikricha islohotdan ko'zlangan asosiy maqsad mahalliy aholi va boyrus dehqonlarining yer va suvga bo'lgan huquqlarini tenglashtirish edi. Shu yo'l bilan ular mahalliy dehqonlarni o'z tomonlariga tortmoqchi bo'ldilar. Haqiqatdan ham 1921-1922 yillar davomida boy rus dehqonlarga tegishli bo'lgan yerlar musodara qilindi, o'lka hududlarda yashayotgan kam yerli va yersiz dehqonlar yer bilan tamirlandi. Islohot davomida boy, cho'loq dehqonlar xo'jaliklari tugatildi va ko'chmanchilarni o'troq xayotga o'tkazishga ko'rsatilgan tadbirlar amalga oshirildi. Lekin vaqt o'tkan sari ana

shu umuman olganda ijobiy bo'lgan tadbirlar bo'lgan qatori mahalliy sharoit milliy mentalitet hisobga olinmagan choralar xam ko'rildi. Bu choralar vaqf yerlarini musodora qilish, mahalliy aholining «mehnat bilan shug'illanmaydigan yuqori qatlamlari» degan vakillarining yerlarini musodora qilish yoki kamaytirishdan iborat bo'ldi.

Sovet hukumati va kompartiya mustamlaka asoratidagi o'lka xalqlarini qul o'rnida ishlatib hisobsiz foyda va daromad olishning eng maqbul shakli bo'lgan kollektivlashtirish siyosatini amalga oshirish uchun ayyorlik va ustamonlik bilan uzoq tayyorgarlik ishlarini olib bordi. Bu borada amalga oshirilgan yer-suv islohoti muhim o'rin tutadi. Yer-suv islohati ikki bosqichda amalga oshirildi;

1. Birinchi bosqich; 1920-yilning boshlarida o'tkazilgan va o'lkada amalga oshirilgan milliy hududiy chegaralanish [S1.1]munosabati bilan ma'lum muddatga to'xtab qoldi.

2. Ikkinchi bosqich; 1925-1929-yillarni o'z ichiga oladi

1920-1921-yillarda o'tkazilgan yer-suv islohotining asosiy maqsadlaridan biri, o'lkaga ko'chirib keltirilgan rus zamindorlarining yerlarini mahalliy dehqonlarning yerlari bilan tenglashtirish edi. Chunki bu rus kelgindi mujiklari. Chor ma'murlaridan juda katta hajmdagi serunum yaxshi yerlarni olgan edilar. Sovet hukumati bu bilan o'zini go'yo mahalliy mehnatkash xalqning «g'amxo'ri» va «mehriboni» qilib ko'rsatmoqchi bo'lgan edi. O'lkada yer-suv islohoti sovet hukumatining («Yer to'g'risida») gi dekreti asosida amalga oshirildi va uning bosh maqsadi qishloqda sinfiy tabaqalanishni kuchaytirishdan iborat edi. Sovet va kompartiya korchalonlari bu yerda ham «bo'lib tashla, hokimlik qil») qabilida ish yuritdilar, qishloq aholisini boy va kambag'allarga bo'lib ularning sopini o'zidan chiqarib bir-birlariga qarshi gij-gijladilar. 1921-yilda tashkil etilgan «Qo'shchi» ittifoqi xuddi ana shu maqsadda tuzildi. 20-yillarning o'rtalaridayoq uning saflarida 160 ming nafarga yaqin a'zo bor edi. Bu ittifoqqa asosan yersiz va kam yerli kambag'al dehqonlar uyushar edi. Uning faoliyati bolsheviklar tomonidan boshqarilar edi. «Qo'shchi» ittifoqi boylar va ruhoniylarning yerlarini tortib olib, yersiz va kam yerli dehqonlarga bo'lib berardi. 1921-1922-yillarda o'tkazilgan yer-suv islohoti natijasida Sirdaryo, Farg'ona, Yettisuv viloyatlari, Turkman viloyatining Marv uyezdida 1.722.626 desyatini yer musodora qilindi. Ana shu yerlardan 117.512 desyatini yersiz va kam yerli o'zbek dehqonlariga berildi va 3 ming xo'jalik tashkil etildi. Dehqonlarga yer bilan birgalikda 1.517 ot, 87 tuya, 1042 sigir va 133 eshaklar ham taqsimlab berildi. Bundan tashqari qishloq kambag'allariga mehnat qurollari ham ulashildi.

Sovet hukumati O'zbekistonda mulk egalarini sekin-asta cheklash va tugatish siyosatini olib bordi. O'zbek qishloqlarida mana shu siyosatni amalga oshirishga qaratilgan chora- tadbirlardan biri 1925-1929-yillardagi yer-suv islohoti bo'lgan. Bu islohot joy-larda shart-sharoitlar va tayyorgarlik darajasiga qarab uch bosqichda o'tkazildi. Birinchi bosqich; Farg'ona, Toshkent, Samarqand viloyatlarida 1925-1926-

yillarda bo'ldi. Ikkinchi bosqich; Zarafshon viloyatida 1927-yili yer-suv islohoti o'tkazildi. Uchinchi bosqich; Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm okruglarida oxirgi navbatda 1928-1929-yillarda amalga oshirildi.



Islohotni o'tkazish uchun MIK huzurida Markaziy yer-suv islohotini o'tkazish komissiyasi, viloyat ijroiya qo'mitalari huzurida viloyat komissiyalari, har ikki oblostga bittadan rayon yer-suv islohoti o'tkazish komissiyalari tashkil etildi.

Xulosa. O'zbekiston tarixida olib borilgan islohotlarning asosi kommunistik mafkura asosidagi va shovinistik kompartyaning buyruqlariga bo'ysunadigan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgandi. Ushbu siyosatni oqlash maqsadida ittifoq hududida yagona, markazlashgan kompleks xo'jalik tizimini qo'llash g'oyasi kommunistik partiya tomonidan ilgari surildi. Kommunistik partiya dohiylari maqtagan sovetcha xo'jalikning asl mazmuniga qaraydigan bo'lsak, O'zbekistonning sanoati, qishloq xo'jalik tarmoqlari boshqaruvini to'laligicha markazning tasarrufiga o'tkazish, "markazdagi xo'jayinlar"ning topshiriq va ko'rsatmalariga so'zsiz amal qilgan holda siyosat yuritish maqsadi yotardi. Aynan ushbu maqsadlar asosida birinchi zarba agrar sohaga ya'ni dehqonlarga berildi. Ularga asossiz ayblar, turli tuhmatlar yog'dirildi va mol-mulkleri davlat foydasiga musodara qilindi. Sovet hukumatining olib borgan agrar, iqtisodiy va kommunistik siyosati natijasida xususiy mulkchilik deyarli tugatildi.

O'zbekistonda yer-suv islohoti o'tkazilishi davrida kompartiya va sovetlarning agrar siyosatiga qarshi norozilik harakati keng tus oldi. Hatto terorchilik keng tus olgan. Faqat 1928-yilning o'zida O'zbekistonda 218, 1929-yilda 429, 1930-yil, yanvar-aprelida 106 jami 653 terrorchilik hodisalari yuz bergan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xaydarov M.M. O'zbekistonda Sovet davlati boshqaruvi tizimining shakllanishi, bosqichlari va mohiyati (1917-1941-yill) O'zbekiston tarixi Tarix fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati.- Toshkent, 2021. – B.8.
2. Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг кулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. –Тошкент: Шарқ, 2003. - Б. 55.
2. Ўзбекистон ССР компартияси(б) II съезди. Стенограмма ҳисоботи.(1926-йил 22-30-ноябр). – Самарқанд, 1926. – Б.143.
- 3.Аминова Р Х. Возвращаясь к истории коллективизации в Узбекистане. - Ташкент, 1995.
5. Nazirov B.,Yaqubova D. O'zbekistonda yer-suv munosabatlari tarixi. (qadimgi davrdan hozirgi kunga qadar). – Termiz: "Bekshox print servis" nashriyoti,
– 2023. – 539 b.



6. Мирзаева, Н. (2011). Русские поселения Мирзачульского оазиса и их социально-экономическое положение в конце XIX–начале XX века. Каталог авторефератов, 1(1), 1-30.

7. Мирзаева, Н. Ж. (2025). XIX АСРНИНГ ОХИРИ XX АСР БОШЛАРИДА МИРЗАЧЎЛ ВОҲАСИ АҲОЛИСИНИНГ ДЕҲҚОНЧИЛИК МАДАНИЯТИДАГИ ТРАНСФОРМАЦИОН ЖАРАЁНЛАР. Решение социальных проблем в управлении и экономике, 4(4), 58-67.

8. Мавлянов, У. Н. (2022). ONTOLOGICAL VIEWS OF ALI SAFI. ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ, (1 (16)).

9. Nasriddinovich, M. U. (2021). ALI SAFIY AXLOQ QOIDALARIGA AMAL QILISHNING ANAMIYATI HAQIDA. PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL, (1).

10. Хамидова, Х., & Мирзаева, Н. (2022). Xx asr boshlarida mirzachol vohasidagi agrar o'zgarishlar (—Туркестанское сельское хозяйство jurnali asosida). Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), 631-634.